

BOBUR ILMIY-MANAVIY MEROSINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Nurillayeva Munisa

Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti

6-4UZB-21-guruh talabasi

+9989907451338

Annotasiya: *Ushbu maqolada Bobur gʻazallarida keltirilgan onomastik birliklar haqida soʻz ketgan. Shuningdek, misollar orqali qisqacha talil qilingan.*

Kalit soʻzlar: *onomastika, gʻazal, antroponim, toponim, fitonim, zoonim.*

Аннотация: *В данной статье говорится об ономастических единицах, упомянутых в газелях Бабур. Это также кратко объясняется на примерах.*

Ключевые слова: *ономастика, газель, антропоним, топоним, фитоним, зооним.*

Annotation: *This article talks about the onomastic units mentioned in Babur's ghazals. It is also briefly explained through examples.*

Keywords: *onomastics, ghazal, anthroponym, toponym, phytonym, zoonym.*

KIRISH

Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur orta asr Sharq madaniyati, sanati, adabiyoti hamda shariyatida oʻziga xos mavqega ega bolgan yozuvchi, shoir va olim bilan birga yirik davlat arbobi hamdir. Adabiyotga yoshligidan mehr qoygan Zahiriddin, barcha Temuriy shahzodalar kabi bu ilmlarni saroyda yetuk ustozlar rahbarligida egallaydi. Bobur ijodini organar ekanmiz, nafaqat adabiyotga balki, oʻzbek adabiy tiliga ham qanchalik hissa qoshganini koʻrishimiz mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALR

Darhaqiqat, umumxalq tilining ajoyib namunalari asosida yozilgan Bobur gazallarida mustaqil soʻz turkumlari (fel, ot, sifat, son, ravish, taqlid), yordamchi soʻz turkumlari (boglovchi, komakchi, yukalma) hamda modal, taqlid kabi soʻzlar keltirilgan. Shulardan til tizimida atoqli otlar alohida orin tutadigan lisoniy hodisa sanaladi. Oʻzbek tilida atoqli otlar kop asrlardan beri asta-sekinlik bilan tarkib topib, shakllanib, rivojlanib, kelmoqda.

Aytish joizki, Bobur shariy asarlarida onomastikaning xohlagan guruhiga misol boladigan soʻz topishimiz mumkin.

1. Antroponimlar: shaxslarga atab qoyilgan nomlar bolib, tildagi leksik birliklar kabi uning ham umumiy va xususiy jihatlari bilan leksik sistemaga birlashadi.

Masalan, Layli, Majnun, Farhod, Shirin, Xizr, Hofiz Salmon, Mirzo Qosim Argundur, Bobur.

*Husnda ortuq agar bolsa yuzi **Laylidin**,
Men taqi bormen aning ishqida yuz **Majnuncha**!
Rindlar ollida hayvon suyini kop okasen,
Ey **Xizr**, bormu ekin ul suv mayi gulguncha?
Qani **Shirin** bila **Layliki**, sendin noz organsa?
Qani **Farhod-u Majnunkim**, alarga ishq orgatsam?!
Iroq-u Fors gar yetsa, sening bu shering, ey **Bobur**,
Ani hifz etgusi **Hofiz**, musallam tutqusi **Salmon**.*

Toponimlar- har qanday joy nomi bolib, tegishli joyda yashovchi millat, elat va xalqni birlashtirib turuvchi hududni ozida aks etadi. Gazalda keltirilgan toponimlar: Chin, Xito, Sanbal, Tatyir, Yazd.

*Gar chin desangiz, kozi oning ohuyi **Chindur**,
Xatti, xato qilmasangiz, mushki **Xitodur**.
Adovat odi, muhabbat nishoni qolgucha, Bobur,
Aduv xayli **Yazd-u muhibe** oli abodur.
Taqdirdur ul yon-u bu yon solguchi, yoqsa,
Kimga qavasi **Sanbal-u Tatyir** qilibtur?*

Fitonimlar- osimlik nomlari bolib, adbiyotda kuchli ilhom manbayi hisoblanadi. Bobur gazallarining qariyb 70-80 foizida fitonim bilan bogliq misralari uchraydi. Sheriy asrlardagi fitonimik oxshatishlar yaqqol ko'zga tashlanadigan holat bolib, adabiyotda oshiq mashuqa va uning biror holatini shartli nomlashga imkon beradi. Misol uchun : nasrin, shamshod,

*Ey yuzi **nasrin**, qomati **shamshod**,
Necha qilursen jonima bedod?
Gul jamoli yopqan ul gulning ikki **rayhonidur**,
Guncha sirrin ochqon ul ikki labi xandonidur.
Ishq elining ohidin ul **sarv** qad xam bolmasum,
Gam yelidin ul muanbar zulf darham bolmasum.
Xating aro uzoring sabza ichinda **lola**,*

Ul chashi purxumoring loladagi gazola

*Xazon yafrogi yanglig gul yuzung hajrida sargardim,
Korub rahm aylagil, ey lolaruh, bu chehrayi zardim.*

Malumki, har qanday onimik leksama malum bir manoni beradi, yani u leksema joy ,shaxs va narsa haqida xabar yetkazishi mumkin.,Bu xabar esa maxsus onomastik vazifasini bajaradi va uslubiy hamda estetik ahamiyatga ega.Bu holatni yuqoridagi Bobur qalamiga mansub miosollarda oz ifodasini topgan. Boshqacha aytganda, bir onomastik birlik bir sohada emas, balki bir necha sohada ham malum bir xabarni tashish imkonini beradi. Bobur gazallarida keltirilgan birliklar tarixiy hamda badiiy estetik vazifalarni bajargan. Antroponimlar va toponimlarning tarixiylik xususiyati kozga tashlansa, fitonimlarda esa badiiy estetik jihatlarni bahra olish mumkin.

XULOSA

Umuman olganda, Zahriddin Muhammad Boburning ham nasriy ham sheriylarida ozbek adabiy tilining qanchalik boyligi dalillar orqali isbotlab bergani korishimiz mumkin. Undagi har bir soz qimmatli ahamiyatga ega sanaldi, shuning uchun ham tariximiz oynalarini hisoblangan shu va shu kabi nodir asarlarimizni organib, asrabavaylab kelajak avlodni manaviy boyliklarimizdan bahramand bolishlari bizning zimmamizdagi vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Z.M.BOBUR.Har kimki vafo qilsa.-Toshkent, 2019.
- 2.B.Kilichev.Onomastik.- Buxoro,2023
- 3.Yulduz Choriyevna Madayeva.Ozbek tilida fitonimlarning leksik-semantik xususiyatlari.-2022
- 4.F.Rajabova, M.Turdiyeva .Boburnomada izofali onomastik birliklar -2022
- 5.ziyo.uz.com
6. @natlib.uz
7. uz.wikipedia.org